




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE



+998335668868



<https://innoworld.net>

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



**Academic
Resource
Index
ResearchBib**



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



Volume 2 Issue 5 | 2025 |

+99894 5668868 | @Anvarbek_PhD

Page | 2

Oilaviy munosabatlarda meros va mol-mulk masalariga oid zamonaviy yondashuvlar va tendensiyalar

Toirova Xurshida Akbar qizi

Guliston davlat pedagogika instituti 1- kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarda meros va mol-mulk masalalarining huquqiy, ijtimoiy hamda ma'naviy jihatlarini zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro tajriba hamda milliy qadriyatlar asosida meros huquqining rivojlanish tendensiyalari yoritiladi. Shuningdek, oilaviy nizolarning oldini olishda huquqiy madaniyat va vasiyatnoma institutining ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: meros huquqi, oilaviy munosabatlar, mol-mulk, vasiyatnoma, nikoh shartnomasi, huquqiy madaniyat.

KIRISH. Jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bu- oilaning mustahkamligi hisoblanadi. Oila nafaqat ijtimoiy institut, balki mulkiy va manaviy munosabatlar uyg'unlashgan murakkab tizimdir. Ayniqsa, meros va mol-mulk bilan bog'liq masalalar oilaviy munosabatlarda eng ko'p nizolar keltirib chiqaradigan sohalardan biri sanaladi. Huquqshunos olim A.X. Saidovning fikricha, "Meros huquqi jamiyatda mulkiy barqarorlikni ta'minlovchi va avlodlar uzviyligini saqlovchi asosiy huquqiy institutdir" [1]. Ushbu yondashuv meros masalasining faqat shaxsiy manfaat emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bugungi globallashtirish, urbanizatsiya va raqamli iqtisodiyot sharoitida oilaviy mulk tarkibi murakkablashib, meros masalalariga bo'lgan yondashuvlar ham tubdan o'zgarib bormoqda. Shu bois ushbu mavzuning ilmiy tahlili dolzarb hisoblanadi. Meros huquqi fuqarolik huquqining mustaqil instituti bo'lib, shaxs vafotidan so'ng uning mol- mulki, huquq va majburiyatlarining vorislarga o'tishini tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq, meros qonun bo'yicha yoki vasiyat bo'yicha amalga oshiriladi [2]. D.M.Xolmatovning ta'kidlashicha, "Meros huquqining asosiy vazifasi- vorislar o'rtasida adolat va huquqiy aniqlikni ta'minlashdir" [3]. Ushbu fikr meros masalalarida tenglik va ijtimoiy muvozanat tamoyillarining muhimligini anglatadi. Nazariy jihatdan meros huquqi mulkiy uzluksizlikni ta'minlaydi, oilaviy barqarorlikni mustahkamlaydi, jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptiradi. Oilaviy munosabatlarda mol-mulk masalalari er-xotinning umumiy va shaxsiy mulkiga doir huquqiy normalar bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga ko'ra, nikoh davrida orttirilgan mol-mulk er-xotinning umumiy mulki hisoblanadi [4]. Zamonaviy sharoitda nikoh shartnomasi instituti muhim ahamiyat kasb etmoqda. N.R.Rahmonov ta'kidlaganidek, "Nikoh shartnomasi oilaviy munosabatlarda mulkiy masalalarni oldindan tartibga soluvchi samarali huquqiy vositadir" [5]. So'nggi yillarda O'zbekiston huquqiy tizimni raqamlashtirish jarayoni jadallashdi. Notarial xizmatlarning elektron shaklga o'tkazilishi meros

huquqini amalga oshirishda qulaylik yaratdi. Huquqshunos SH. Ismoilovning fikricha, "Raqamli notariat meros masalalarida shaffoflik va tezkorlikni ta'minlaydi" [6]. Bu esa zamonaviy texnologiyalarning huquqiy munosabatlarga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Zamonaviy tendensiyalarga elektron vasiyatnomalarni, onlayn notarial ro'yxatga olishni, sudgacha kelishuv mexanizmlarining rivojini kiritishimiz mumkin. Rivojlangan davlatlarda meros masalalariga individual yondashuv ustuvor hisoblanadi. Xususan, Germaniya va Fransiyada vasiyatnoma tuzish madaniyati keng rivojlangan. Fransuz huquqshunosi J. Carbonnier shunday yozadi: "Meros huquqi shaxsning hayotdan keying ijtimoiy irodasini ifodalaydi" [7]. Ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida ham vasiyatnoma institutini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. O'zbek xalqining mentalitetida meros masalalari ko'pincha urf odat va an'analar asosida hal etiladi. Kattaga hurmat, insof va adolat tamoyillari ustuvor hisoblanadi. Ma'naviyatshunos E. Yusupovning fikricha, "Huquqiy me'yorlar ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashgandagina jamiyatda barqarorlik yuzga keladi" [8]. Bugungi kunda meros masalalarida huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi, vasiyatnoma tuzish madaniyatining sustligi, oilaviy nizlarning ko'pligi mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun huquqiy targ'ibot va ma'naviy tarbiyani kuchaytirish zarur. Zamonaviy huquqiy tizimlarda ayollar va voyaga yetmaganlarning meros huquqlarini himiya qilish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Tarixiy jihatdan meros masalalarida ayrim ijtimoiy guruhlar, sususan, ayollar va bolalarning huquqlari yetarli darajada ta'minlanmagan holatlar uchragan. Bugungi kunda esa ushbu masalaga tenglik va adolat tamoyillari asosida yondashilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra ayollar va voyaga yetmaganlar boshqa vorislar bilan tebg huquqlarga ega bo'lib, ularning ulushlari qonun bilan kafolatlanadi. Huquqshunos M.A. Abdullayevning ta'kidlashicha, "Meros huquqida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning manfaatlarini ustuvor himoya qilish huquqiy davlatning muhim belgilaridan biridir" [9]. Zamonaviy mexanizmlarni majburiy ulush institutining mustahkamlanishida, voyaga yetmaganlar manfaatini ko'zlab vasiylik organlarini ishtirokida, sud amaliyotida ijtimoiy adolat tamoyilining keng qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Mazkur yondashuvlar oilaviy munosabatlarda ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. So'nggi yillarda oilaviy meros nizolarini sud orqali emas, balki muqobil yo'llar bilan hal etish tendensiyasi kuchaymoqda. Sud jarayonlarining uzoq davom etishi va ruhiy bosimi iolaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli mediatsiya institute amaliyotda tobora keng qo'llanilmoqda. Mediatsiya – bu mustaqil vositachi ishtirokida nizoni tomonlar kelishuvi asosida hal etish jarayonidir. Huquqshunos S.S. Karomovning fikricha, "Oilaviy meros nizolarida mediatsiya qo'llanilishi qarindoshlik aloqalarining saqlanib qolishiga xizmat qiladi" [10]. Meros nizolarida mediatsiyaning afzalliklarini nizoni tez kam xarajat bilan hal



etishda, tomonlar o'rtasida murosani mustahkamlashda, sud yuklamasini kamaytirishda ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy huquqiy davlatlarda mediatsiya instituti meros huquqining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda va O'zbekiston sharoitida ham uni rivojlantirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

XULOSA. Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarda meros va mol-mulk masalalariga oid zamonaviy yondashuvlar kompleks tahlil qilindi. Bu jarayonda meros huquqining nazariy -huquqiy asoslari, oilaviy mulkiy munosabatlarning amaldagi huquqiy tartibi hamda so'nggi yillarda ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun mohiyati ochib berildi. Raqamli texnologiyalarning notarial va meros munosabatlariga joriy etilishi huquqiy aniqlik, shaffoflik, va tezkorlikni ta'minlayotgani yoritildi. Shuningdek, xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlarda, meros masalalarida shaxs irodasini ifodalovchi vasiyatnoma instituti hamda suddan tashqari nizolarni hal etish mexanizmlari keng qo'llanilmoqda. Ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish meros bilan bog'liq nizolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ayollar va voyaga yetmaganlarning meros huquqlarini himoya qilish masalalariga ham e'tibor berishimiz mumkin. Amaldagi qonunchilikda ushbu toifadagi shaxslarning manfaatlari kafolatlangan bo'lsa-da, huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi ularning huquqlarini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilayotgan omillardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shu bois, majburiy ulush instituti va vasiylik organlari faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, oilaviy meros nizolarini muqobil hal etish usullari, xususan, mediatsiya institutining ahamiyati asoslab berildi. Mediatsiya nafaqat nizolarni tez va samarali hal etish, balki qarindoshlik munosabatlarini saqlab qolish imkonini beruvchi zamonaviy huquqiy mexanizm sifatida e'tirof etildi. Xulosa qilib aytganda, oilaviy munosabatlarda meros va mol-mulk masalalariga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda ma'naviy axloqiy qadriyatlar uyg'unligiga tayanishi lozim. Huquqiy madaniyatni oshirish, vasiyatnoma va mediatsiya institutlarini rivojlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar manfaatlarini ta'minlash orqali oilaviy barqarorlikni mustahkamlash va jamiyatda adolat tamoyillarini qaror toptirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saidov A.X. Huquq nazariyasi. – Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
3. Xolmatov D.M. Meros huquqi masalalari.
4. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.
5. Rahmonov N.R. Raqamli huquq va notariat.
6. Ismoilov Sh. Zamonaviy notarial tizim.
7. Carbonnier J. Droit civil. Paris.
8. Yusupov E. Ma'naviyat asoslari.
9. Abdullayev M.A. Meros huquqida ijtimoiy himoya masalalari. - Toshkent.